XALQ DEPUTATLARI XONOBOD SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 15-yanvar VII-3-4-1-30-K/25 Xonobod shahar

Xonobod shahrida 2025-yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xoʻjaligiga moʼljallanmagan yerlar uchun bazaviy soliq stavkalarini belgilash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429- va 437-moddalari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi PF-6121-son Farmonining 1-bandiga muvofiq Xonobod shahar moliya boʻlimi va shahar soliq inspektsiyasining “Qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar boʻyicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar” boʻyicha kiritgan takliflarini muhokama etib, Xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-va 437-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi PF-6121-farmonining 4-bandiga va Xonobod shahar soliq inspeksiyasi bo’limi boshlig’i X.Egamberdiyevaning hisoboti ma’lumot uchun hamda 2024-yil 23-dekabrdagi 21-02886-sonli xati asos uchun qabul qilinsin.

2. Yer solig‘ining amaldagi soliq stavkalari 2025-yilda 1,10 baravarga indeksatsiya qilinishi kutilayotganligi;

3. “Qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar boʻyicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar” miqdorlarini belgilash boʻyicha shahar Moliya boʻlimining hamda shahar Soliq inspektsiyasining taklifi maʼqullansin.

4. Xonobod shahar hududida qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdorlari yuridik shaxslar uchun 1-ilovaga hamda jismoniy shaxslar uchun 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Bunda, Soliq idoralariga jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2025-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi;

6. Bunda, xalq deputatlari shahar Kengashiga ushbu qarorning 1-2-3-4-5-ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni kelgusi-yil uchun mahalliy byudjet daromadlari prognozidan hamda shahrimizda iqtisodiy faollikning tiklanganligi hamda aholi va tadbirkorlarning daromadlari barqarorlashganligidan kelib chiqqan holda qoʻllashlari tavsiya etilsin.

7. Xonobod shahar iqtisodiyot va moliya boʻlimi (N.Xusanjonov), Xonobod hahar soliq inspektsiyasi (X.Egamberdiyeva) yer soligʻi boʻyicha tasdiqlangan soliq stavkalarini 1-yanvarga qadar barcha soliq toʻlovchilarga soliq toʻlovchining shaxsiy kabineti orqali yetkazilishini taʼminlasin.

8. Shahar hokimligi matbuot kotibi mazkur qarorni matbuotda eʼlon qilinishi hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini taʼminlasin.

9. Mazkur qaror bilan belgilangan soliq stavkalari 2025-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.

10. Xalq deputatlari Xonobod shahar Kengashining 2023 yil13 yanvardagi VI-43-5-1-30-K/23-sonli qarori 2025-yil 1-yanvar kunidan oʻz kuchini yoʼqotgan deb topilsin.

11. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Xonobod shahar Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari boʼyicha doimiy komissiyasi hamda Xonobod shahar hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

12. Ushbu qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi TAJIBAYEV MASH’AL XURMAMATOVICH

Xalq deputatlari Xonobod shahar
Kengashining
2025-yil 15-yanvardagi
VII-3-4-1-30-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Xonobod shahrida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha 2025-yil uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan belgilangan kamaytiruvchi koeffitsiyentlar miqdori

№	Hududlar nomi	Koeffitsiyent miqdori (0,5 gacha kamaytiruvchi ko effitsiyent)	1 kv. metr uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymat (so‘mda)
1	Yangi xayot MFY	1,083	1 300 000
2	Xontog′ MFY	1,083	1 300 000
3	Yuksalish MFY	1,083	1 300 000
4	Xonobod MFY	1,083	1 300 000
5	Mustakillik MFY	1,083	1 300 000
6	Fozilmon MFY	1,083	1 300 000
7	Teyt MFY	1,083	1 300 000
8	Navoiy MFY	1,083	1 300 000
9	Mexmonobod MFY	1,083	1 300 000
10	Kampirrovot MFY	1,083	1 300 000
11	Istiqlol MFY	1,083	1 300 000
12	Bunyodkor MFY	1,083	1 300 000
13	Anxor MFY	1,083	1 300 000
14	A.Fitrat MFY	1,083	1 300 000
15	Xidirsha MFY	1,083	1 300 000

Yirik soliq to′lovchilardan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-moddasiga muvofiq, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro′yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro′yxatdan o′tkazilishi lozim bo′lgan binolar va inshootlar uchun soliq bazasi 1 kv.m uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymat qishloq joylarda 1200 ming so‘m miqdori belgilangan.

Qo′llanilishi lozim bo′lgan soliq summasi mutlaq miqdorni koeffitsiyentga ko′paytirish orqalianiqlanadi.

Xalq deputatlari Xonobod shahar
Kengashining
2025-yil 15-yanvardagi
VII-3-4-1-30-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari

№	Hududlar nomi	Koeffitsiyent miqdori	Binolar (umumiy maydonning 1 kv.metri uchun)	
			turar joy	noturar joy
1.	Yangi xayot MFY	1,40	7 700	15 400
2.	Xontog' MFY	1,40	7 700	15 400
3.	Yuksalish MFY	1,40	7 700	15 400
4.	Xonobod MFY	1,40	7 700	15 400
5.	Mustakillik MFY	1,40	7 700	15 400
6.	Fozilmon MFY	1,40	7 700	15 400
7.	Teyt MFY	1,40	7 700	15 400
8.	Navoiy MFY	1,40	7 700	15 400
9.	Mexmonobod MFY	1,40	7 700	15 400
10.	Kampirrovot MFY	1,40	7 700	15 400
11.	Istiqlol MFY	1,40	7 700	15 400
12.	Bunyodkor MFY	1,40	7 700	15 400
13.	Anxor MFY	1,40	7 700	15 400
14.	A.Fitrat MFY	1,40	7 700	15 400
15.	Xidirsha MFY	1,40	7 700	15 400

Izoh:Mazkur stavkalar jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida qo'llaniladi hamda ko'chmas mulkdan tekin foydalanish shartnomalariga (yaqin qarindoshlar o'rtasidagi tuzilgan shartnomalar bundan mustasno) tatbiq etiladi.

Xalq deputatlari Xonobod shahar
Kengashining
2025-yil 15-yanvardagi
VII-3-4-1-30-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2025-yil uchun yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qatʼiy belgilangan miqdorlardagi soliq stavkalari

№	Hududlar nomi	Bir oylik soliq stavkalari (soʻmda)				
		Chakana savdo:			Maishiy xizmatlar	Boshqa faoliyat turlari
		oziq-ovqat tovarlari va nooziq-ovqat tovarlari bilan	dehqon bozorlarida qishloq xoʻjaligi mahsulotlari bilan	gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan		
1.	Yangi xayot MFY	400 000	140 000	140 000	140 000	140 000
2.	Xontogʼ MFY	400 000	140 000	140 000	140 000	140 000
3.	Yuksalish MFY	400 000	140 000	140 000	140 000	140 000
4.	Xonobod MFY	400 000	140 000	140 000	140 000	140 000
5.	Mustakillik MFY	400 000	140 000	140 000	140 000	140 000
6.	Fozilmon MFY	400 000	140 000	140 000	140 000	140 000
7.	Teyt MFY	400 000	140 000	140 000	140 000	140 000
8.	Navoiy MFY	400 000	140 000	140 000	140 000	140 000
9.	Mexmonobod MFY	400 000	140 000	140 000	140 000	140 000
10.	Kampirrovot MFY	400 000	140 000	140 000	140 000	140 000
11.	Istiqlol MFY	400 000	140 000	140 000	140 000	140 000
12.	Bunyodkor MFY	400 000	140 000	140 000	140 000	140 000
13.	Anxor MFY	400 000	140 000	140 000	140 000	140 000
14.	A.Fitrat MFY	400 000	140 000	140 000	140 000	140 000

15.	Xidirsha MFY	400 000	140 000	140 000	140 000	140 000

Izoh: O ′zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 383-moddasida belgilangan eng kam va engyuqori stavkalar doirasida belgilanadi.

Xalq deputatlari Xonobod shahar
Kengashining
2025-yil 15-yanvardagi
VII-3-4-1-30-K/25 -son qaroriga
4-ilova

2025-yil uchun “Yer qaridan foydanilganlik uchun soliq” stafkasi
(shahar bo‘yicha)

T/r	**Mahsulot nomi**	Koeffitsiyent miqdori	**Summasi** (so‘mda)
1	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	1,30	800.8
2	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	1,30	13000
3	Marmar	1,30	26000
4	Granitlar	1,30	39000
5	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	1,30	20735
6	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	1,30	600.6
7	Qum-shag‘al aralashmasi qurilish qumi, qumtoshlar	1,30	6500

Xalq deputatlari Xonobod shahar
Kengashining
2025-yil 15-yanvardagi
VII-3-4-1-30-K/25 -son qaroriga
5-ilova

2025-yil uchun “Suv solig′i” stafkasi

(shahar bo′yicha)

T/r	**Mahsulot nomi**	Er usti faoydanilganlik uchun Koeffitsiyent miqdori	**Summasi** (so′mda)	Er osti faoydanilganlik uchun Koeffitsiyent miqdori	**Summasi** (so′mda)
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar	**1.20**	8 40	**1.20**	1 020
2	Sanoat korxonalari	**1.20**	8 40	**1.20**	1 020
3	Avtotransport vositalarini yuvish	**1.20**	90 000	**1.20**	18 000
4	Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	**1.20**	45 600	**1.20**	45 600